



TIL O‘RGATISHDA O‘QIB TUSHUNISH KO‘NIKMASINI TAKOMILLASHTIRISH

Astonova Go‘zalxon Raxmonaliyevna
Far DU o‘qituvchi, gozalxonastonova@gmail.com
+998916618583
ORCID ID: 0009-0000-1845-421X

Annotatsiya

Ushbu maqolada chet tili darslarida o‘qib tushunish ko‘nikmasining o‘rni, uning ahamiyati va rivojlantirish usullari yoritilgan. Metodlar, texnologiyalar va o‘qish strategiyalari orqali til kompetensiyasini takomillashtirish imkoniyatlari tahlil qilingan.

Kalit so‘zlar: chet tili, o‘qib tushunish, til ko‘nikmalari, o‘qish strategiyalari, zamonaviy metodlar, pedagogika, axborot texnologiyalari, matn tahlili, til kompetensiyasi

Аннотация

В статье рассматривается роль навыков понимания прочитанного на занятиях по иностранному языку, их важность и методы развития. Анализируются возможности улучшения языковой компетенции с помощью методов, технологий и стратегий чтения.

Ключевые слова: иностранный язык, понимание прочитанного, Leseverstehen, языковые навыки, стратегии чтения, современные методы, педагогика, информационные технологии, анализ текста, языковая компетенция

Abstract

This article discusses the role of reading comprehension skills in foreign language classes, their importance, and methods of development. It analyzes the possibilities of improving language competence through methods, technologies, and reading strategies.

Keywords: foreign language, reading comprehension, language skills, reading strategies, modern methods, pedagogy, information technologies, text analysis, language competence

Bugungi globallashuv davrida chet tilini o‘rganish zamonaviy jamiyatning ajralmas ehtiyojiga aylanib bormoqda. Chet tilini o‘rganishda asosiy maqsad shunchaki grammatikani o‘zlashtirish emas, balki to‘liq kommunikativ



kompetensiyani shakllantirishdir. Bu jarayonda o'qib tushunish (Leseverstehen) ko'nikmasi alohida ahamiyat kasb etadi, chunki matnni anglash orqali o'quvchi tilni kontekstda idrok etadi, yangi so'z va iboralarni o'zlashtiradi, madaniy tafovutlarni tushunadi va boshqa kommunikativ ko'nikmalarni (Sprechen, Schreiben, Hören) mustahkamlaydi. O'qib tushunish ko'nikmasini takomillashtirish uchun ta'lim jarayonida bir qancha samarali metod va yondashuvlardan foydalanish lozim. Birinchi navbatda, o'quvchining til darajasiga mos keladigan, qiziqarli va mazmunan boy matnlarni tanlash muhimdir. Bu matnlar o'quvchida tilga nisbatan qiziqishni uyg'otadi, uni mustaqil fikrlashga va matn bilan ijodiy ishlashga undaydi. Ayniqsa, madaniy konteksti mavjud matnlar o'quvchining chet tilida nafaqat so'zlash, balki xalqning dunyoqarashi, qadriyatlari va urf-odatlarini bilan tanishishga yordam beradi. Shuningdek, o'qib tushunish bo'yicha mashg'ulotlarni samarali tashkil etish uchun o'qishdan oldingi, o'qish davomida va o'qishdan keyingi strategiyalarni qo'llash zarur. O'qishdan oldingi bosqichda matnga oid kalit so'zlar bilan tanishtirish, taxmin qilishga undaydigan savollar berish o'quvchini faol holatga keltiradi. O'qish jarayonida asosiy g'oya, asosiy fikr, muammoli nuqtalarni aniqlashga yo'naltirilgan topshiriqlar tushunishni chuqurlashtiradi. O'qishdan keyingi bosqichda esa matn asosida savollarga javob berish, matnni qayta hikoya qilish, roli o'ynash, esse yozish kabi faoliyatlar orqali matn mazmuni yanada mustahkamlanadi. Interaktiv metodlardan foydalanish ham o'quvchilarni o'qishga jalb etishda samarali vosita hisoblanadi. Masalan, klaster (Clusteranalyse), savol-javob (Fragen-Antworten), guruhli muhokama (Diskussion), grafik organayzerlar kabi metodlar o'quvchilarning faolligini oshiradi, tanqidiy va tahliliy fikrlashga yo'naltiradi. Bu jarayonda o'qituvchining vazifasi – o'quvchilarga yo'l-yo'riq ko'rsatish, ularni mustaqil xulosa chiqarishga undash va muhokama orqali bilimlarini chuqurlashtirishdir.

Axborot-kommunikatsion texnologiyalardan foydalanish esa chet tili darslarini zamonaviy va qiziqarli tarzda tashkil etishga yordam beradi. Onlayn matnlar, audio va video materiallar, raqamli lug'atlar, interaktiv platformalar orqali o'quvchi o'z bilimini mustaqil va davomli tarzda rivojlantirish imkoniyatiga ega bo'ladi. Ayniqsa, audiokitoblar va interaktiv o'yinlar orqali o'qish jarayoni ko'proq sezgilarni jalb etadi va bu esa o'quvchining materialni anglash darajasini oshiradi.

Xulosa qilib aytganda, chet tili darslarida o'qib tushunish ko'nikmasini takomillashtirish – bu murakkab, ammo zarur pedagogik jarayon bo'lib, uni samarali tashkil etish uchun mos matn tanlovi, interaktiv va zamonaviy metodlar, hamda axborot texnologiyalarini o'zaro uyg'unlashtirish talab etiladi. Bu esa o'z navbatida



o'quvchining chet tilini mukammal o'zlashtirishga, mustaqil o'rganish ko'nikmalarini shakllantirishga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Spimmesberger, S. & Lenhard, W. (2025) Reading comprehension interventions in the German language: A multilevel meta-regression analysis.
2. Hockicková, ... et al. (2022) Experimental Verification of the Reading Comprehension Intervention for the German Language as L3.
3. Lehrner-te Lindert, E. (2016) Fremdsprachliches Lesen mit literarischen Texten. Zur Entwicklung von Leseverstehen und literarischer Kompetenz im DaF-Unterricht.
4. Gemeinfreies Material aus dem Goethe-Institut (<https://www.goethe.de/>)